



## YOSHLAR O'RTASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISH VA ULARGA QARSHI KURASHISH

*Egamov Shahzod Toxir o'g'li*

*TDTrU Iqtisodiyot fakulteti 2-kurs Yu-5 guruh talabasi*

*e-mail pochta manzili: [shahzode10@gmail.com](mailto:shahzode10@gmail.com)*

*Tell raqami: +998 93 8396272*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yoshlar o'rtasidagi huquqbazarliklarni oldini olish hamda ularga qarshi kurashish tahlil qilingan. Yoshlar orasida huquqbazarliklarning sabablari hamda ularning oqibatlariga to'xtalib o'tilgan hamda ularga oid misollar keltirilgan. Huquqbazarlikka qarshi kurashishning eng dolzarb muammolari muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar.** Huquqbazarliklar profilaktikasi, voyaga yetmaganlar, dispozitsiya, ijtimoiy xavfli xatti-harakat, oilaviy nizo, jinoyatchilik.

Bugungi kunda, yoshlar o'rtasidagi huquqbazarliklarni oldini olish va ularga qarshi kurashishning eng asosiy chorasi sifatida oilani mustahkamlash, oilaning ma'nnaviy hamda ruhiy holatini yaxshilash, ota-onalar o'rtasidagi tushunmovchiliklar, oilaviy nizolar hamda ularning shavqatsizligi bilan baholanadi.

Hozirgi vaqtida ko'proq bolalar kompyuterlarga, zamonaviy bolalar uchun juda ko'p vaqt talab qiladigan turli xil tarmoq o'yinlariga qiziqishmoqda, ular madaniyatga qiziqishni to'xtatadilar. Aytish mumkinki, voyaga yetmaganlarning xatti-harakati tobora ko'proq haqoratli, tajovuzkorlik va shafqatsizlik bilan tavsiflanadi. U yoki bu ijtimoiy tarmoqdan foydalangan holda, voyaga yetmagan shaxs muloqot qilish va ular bilan ma'lum bilim, ko'nikma va tajriba almashish uchun o'xshash odamlarni topishi mumkin, shuning uchun muammo paydo bo'lishi mumkin. Jinoyatlar soniga munosabat sifatida qonun chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida dispozitsiya voyaga yetmaganlarni voyaga yetmaganlarning hayoti uchun xavfli qilmishlarni sodir etishga jalb qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.

Shuningdek, voyaga yetmaganlarning guruhlarga bo'linishi, oilalarning moddiy ta'minotidagi sezilarli bo'shliq bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu farqni faqatgina o'smirlar his qilishi mumkin, chunki ular ijtimoiy hayotga yaqindirlar.

Umuman olganda, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbazarliklarning oldini olishni ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

- umumiyl - sub'ektlarning cheksiz doirasiga yo'naltirilgan;



- individual - huquqbuzarning o'ziga xos shaxsiga qaratilgan.

Huquqbazarliklarning umumiyligi profilaktikasi huquqbazarliklarning oldini olish ob'ektlariga ta'sir ko'rsatish shaklidir. Huquqbazarliklarning individual profilaktikasi - voyaga etmaganning g'ayriijtimoiy yo'nalishini va ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarini shakllantirishga olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni bartaraf etishga, shuningdek uni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish va jinoyatlar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etganligini oldini olishga qaratilgan muayyan voyaga etmagan shaxsga individual ta'sir ko'rsatish shaklidir. Bolani tarbiyalash jarayonida ota-onalarning qattiq va yumshoq choralarni teng ravishda to'g'ri qo'llash qobiliyati ham muhimdir.

Fikrimizcha, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikining oldini olishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- oilaviy nizolarni o'z vaqtida hal qilish;
- mastlik va giyohvandlikning oldini olish;
- jamoat tartibini muhofaza qilishni ta'minlash, tungi vaqtarda to'g'ri yoritishni ya'ni chiroqlarni ko'paytirish ta'minlash;
- ruhiy kasalliklar va buzilishlar bilan og'rigan shaxslarni aniqlash;
- aholini huquqiy ta'lim va tarbiyalashni tashkil etish.

Maxsus choralar - bu voyaga etmagan huquqbuzarning shaxsiga, shuningdek, jinoyatni yuzaga keltiruvchi omillarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan choralar.

Ushbu chora-tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarda aybdorlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat, chunki bu nafaqat kelajakda jinoyatchilikka bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir ko'rsatishi, balki uning takrorlanishining oldini olishi ham mumkin.

Bugungi kunda huquqbazarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish davlat siyoati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, 2017-yil 14-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2833 sonli "Huquqbazarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilingan. Ushbu qonunga ko'ra, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbazarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga mahalliy hokimlik va boshqa mutasaddi idoralar zimmasiga muhim vazifalar yuklatilganli bugunning eng dolzarb muammosi ekanligini ifodalaydi.

Xususan, o'rganilgan statistika natijalariga ko'ra, sodir etilayotgan jinoyatlarning 32 foizi o'g'rilik va firibgarlik hisoblanadi. Ushbu toifadagi jinoyatlarning eng ko'pi Toshkent shahri va Farg'onasi viloyatida qayd qilingan.



Aynan Farg'ona viloyatining o'zida voyaga yetmaganlar sodir etgan og'ir jinoyatlarning 20 foizi va o'ta og'ir jinoyatlarning 43 foizi aynan Qo'qon shahriga to'g'ri kelgan. Jinoyatga qo'l urganlar orasida 47 nafar maktab va 18 nafar kollej o'quvchisi borligi barchamizni birdek tashvishga soladi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jinoyatni aniqlash, uning negizini topish, huquqbuzarliklarning oldini olish, uni jilovlash mutasaddilarning eng asosiy vazifasidir. Jinoyatchiga jazo berishdan ko'ra, uning oldini olish afzal. Bu yo'nalishda hamkorlikni kuchaytirish lozim. Jinoyatchilikka qarshi kurash nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki barchamizning faoliyatimiz mezoni bo'lishi kerak.

Farzand niholga o'xshaydi. Uni yoshligidan qanday tarbiyalasak, shunday voyaga yetadi. Bunda, albatta, oila, mahalla, ta'lim tashkiloti va jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega. Zero, o'zi, oilasi, xalqi, ma'naviy ildizlari haqida yetarli tushunchaga ega bo'lgan bola jinoyat ko'chasiga qadam bosmaydi.

Hozirgi kunda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish borasida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish darkor.

Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy yoshlari tarbiyasini " Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat- yo falokat masalasidir", deb ta'riflagan. Zero, tarbiysi mo'rt yoshlardan jamiyat, mahalla yoki oila uchun hech qanday naf bo'lmaydi. Yoshlarning jinoyatga qo'l urishi tarbiyada yo'l qo'yilgan xato yoki befarqlikning achchiq isboti hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak, deb hisoblaydi ijtimoiy faollarhttps://iiv.uz/ru/news
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2017 PQ-2833 sonli qarori.
4. The rise of technology in crime prevention: opportunities, challenges and practitioners, perspectives" Dario Ortega Anderez, Eiman Kanjo, Amna Anwar, Shane Johnson, David Lucy February 9, 2021